

**ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOSHLANG‘ICH SINIF
O‘QUVCHILARNI IJTIMOYIY MAISHIY HAYOTGA YO‘NALTIRISHDA
KOMMUNIKATIV MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH
TEXNALOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI**

Sadirova Kamola Giyozovna

*Nizomiy nomidagi TPDU Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik
asoslari kafedrası PhD, dotsent v.b*

Mavlonova Shahzodaxon Siddiq qizi

*Nizomiy nomidagi TDPU Magistratura bo‘limi, Surdopedagogika yo‘nalishi
talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada ENB boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kommunikativ malakalarini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy asoslari va eshitishda nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy maishiy-hayotga yo‘naltirishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kommunikatsiya, zamonaviy texnologiya, hamkorlik, ta‘lim, tarbiya, ehtiyoj, o‘quvchi, bilim, rivojlantirish.*

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ
КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ
КЛАССОВ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА ДЛЯ ОРИЕНТАЦИИ В
СОЦИАЛЬНУЮ И ПОВСЕДНЕВНУЮ ЖИЗНЬ**

Камола Гиёзовна Садирова

*Кандидат педагогических наук, доцент в.н, кафедра сурдопедагогики и
клинических основ специальной педагогики Ташкентского государственного
педагогического университета имени Низами*

Мавлонова Шахзодахон Сиддик кизи

*студентка магистратуры факультета сурдопедагогики Ташкентского
государственного педагогического университета имени Низами*

Аннотация: В статье приведены теоретические основы технологий развития коммуникативных навыков у учащихся начальных классов с нарушениями слуха (ЕНБ) и особенности ориентации этих учеников на социальную и бытовую жизнь

Ключевые слова: общение, современные технологии, сотрудничество, образование, воспитание, потребность, ученик, знания, развитие.

**THEORETICAL FOUNDATIONS OF TECHNOLOGIES FOR
DEVELOPING COMMUNICATIVE SKILLS IN PRIMARY SCHOOL
STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS FOR ORIENTATION
TOWARD SOCIAL AND EVERYDAY LIFE**

Kamola Giyozovna Sadirova

*PhD, Associate Professor (acting), Department of Surdopedagogy and Clinical
Foundations of Special Pedagogy, Tashkent State Pedagogical University named
after Nizami*

Shahzodakhon Siddiq qizi Mavlonova,

*a master's student in the field of Surdopedagogy at the Tashkent State
Pedagogical University named after Nizami*

Annotation: This article discusses the theoretical foundations of technologies aimed at developing the communicative competencies of primary school students with hearing impairments (ENB) and explores the specific characteristics of guiding these students toward social and everyday life adaptation

Keywords: communication, modern technology, cooperation, education, upbringing, need, student, knowledge, development.

Ta'lim jarayonida yangi metodlar va innovatsion texnologiyalarining qo'llanishi sezilarli darajada oshib bormoqda. Chunki, kompyuter va multimediya texnologiyalari asosida interfaol elektron o'quv kurslaridan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beruvchi asosiy vosita sifatida

qaralmoqda. Hozirda yoshlar orasida kompyuter va multimediya vositalaridan foydalanishni biladiganlar soni sezilarli darajada oshdi [1]¹³³.

Texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishda eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarning darslariga alohida e‘tibor beriladi va bu zamonaviy texnologiyadan foydalanish metodi hozirgi kunda barcha ta‘lim muassasalarida muhim o‘qitish shakllaridan hisoblanadi. Darslarini nazariy tomonlarini takomillashtirish uning o‘quv jarayonidagi ahamiyatini yanada oshib borishini ta‘minlaydi. Ko‘pgina pedagog-olimlar texnologiyadan foydalangan holda darslarni tashkil etish o‘qitish sifatining yana ham oshishiga olib kelishini ta‘kidlaganlar. Texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning maqsadi eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarning amaliy, laboratoriya ishlari hamda o‘quv, adabiyotlari bilan mustaqil ishlay olishlarini ta‘minlash uchun ularni o‘quv materiallari bilan qurollantirishdan iborat. Darslarni o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirish uchun ulardan ma‘lum darajada bilim, iroda, mehnat hamda diqqatni jalb etish kabi xislatlarning bo‘lishi talab etiladi. Shuning uchun zamonaviy texnologiyadan foydalangan holda darslarini o‘qitishda eshitishda nuqsoni bor o‘quvchining o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlashlarini ta‘minlash katta samara beradi. Shu bilan bir qatorda, eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun ham alohida e‘tibor va sharoit yaratmoq lozim. O‘quvchilar mavzu ustida qancha ko‘p interaktiv metodlardan foydalansa, ular shuncha ko‘p tushunadilar va eslab qoladilar. Tushunib, eslab qolish eng yaxshi va mustahkam bilim olishning usullaridan biri hisoblanadi.

Bolalarning ijtimoiy-maishiy hayotga moslashtirishda to‘g‘ri kommunikativ malakalarini shakllantirish muammosi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarning asosini tashkil qiladi. Ularning to‘g‘ri kommunikativ malakasini shakllantirish va o‘rgatish muammosini hal qilishga o‘ziga xos munosabat bildirgan bo‘lsalar-da, aksariyatlari to‘g‘ri kommunikativ malakasini rivojlantirish hamda rivojlantirishda tizimli yondashuvning, maxsus tashkil etilgan ishning zarurligini birdek ta‘kidlaydilar.

Eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarni ijtimoiy-maishiy hayotga moslashtirishda muassasada olib boriluvchi ta‘lim jarayoni pedagog va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi nutqiy muloqotga asoslanishi natijasida uning bosh tarkibiy qismi (komponenti) ni

¹³³ Усмонов М.С. “Таълим сифатини оширишда таълим технологиялардан фойдаланиш” Кукон-2023-йил

bolalar to‘g‘ri kommunikativ malakasini tashkil etadi. Bola oila va maktabda qadam-baqadam atrofdagilar uchun tushunarli ravishda atrofni o‘rab turgan predmet va yon-atrofida sodir bo‘layotgan, shuningdek, o‘zi ishtirok etayotgan voqea va hodislar haqida fikr hamda taassurotlarini tizimli ravishda nutqiy ta‘rif orqali yetkazib borishni o‘rganadi. Shu bois uning umumiy tarbiyasida, xususan, nutqni shakllantirish borasida pedagog va ota-onalarning o‘rtasida rejali ravishda olib boriluvchi hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish zarurdir. Eshituv idrokini shakllantirish va rivojlantirish uchun ko‘plab omillar masalan, til, madaniyat va individual tajribalar ta‘sir ko‘rsatadi. Eshitishdagi muammolar, masalan, eshitish qobiliyatining yo‘qolishi yoki pasayishi, insonning hayot sifatiga sezilarli darajada ta‘sir qilishi mumkin. Eshituv idroki—insonning eshitish tizimi orqali ovozlarni, tovushlarni va boshqa akustik signalni qabul qilish va ularni tushunish qobiliyatidir. Bu idrok odamga atrof-muhitdagi tovushlarni, musiqa, ovozlarni va nutqni eshitish imkonini beradi. Eshituv idroki insonlarda muhim rol o‘ynaydi, chunki u ijtimoiy aloqalar, xavfsizlik va muhitni tushunish uchun zarurdir.

Bolalarda zaif eshitish holatlari turli darajada va sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Zaif eshitishning tug‘ma bo‘lishi-bola tug‘ilganda mavjud bo‘lgan nuqsonlar.
2. zaif eshitishning orttirilgan bo‘lishi -turli kasalliklar, shikastlanishlar yoki zararli muhit ta‘siri natijasida hosil bo‘lgan nuqsonlar

R.M.Boskis eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar kommunikativ muloqotga o‘rgatish samaradorligiga erishishdagi dastlabki qadam ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tushunishdan boshlanishi zarur, deb hisoblab, I.P.Pavlovning «Analizatorlar faoliyatining birligi», L.S.Vigotskiy-ning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta‘lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibli» psixologik ta‘limotlariga tayanadi. Shuningdek, u eshitish va nutqning o‘zaro aloqadorlikda shakllanishini keng o‘rgangan holda bunday bolalar rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarni keltirib chiqaruvchi qator holatlarga asoslangan pedagogik tasnifni ishlab chiqdi¹³⁴.

¹³⁴ Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. – М.: Владос, 2021 – 36 с.

N.I.Jinning aniqlashicha, o‘z fikrini og‘zaki ifoda etish uchun nutq tuzishda bolalar duch keladigan qiyinchiliklar asosan bir nechta sabablarga bog‘liq¹³⁵: og‘zaki nutq fikrining shu vaqtning o‘zida so‘z bilan ifodalanishini talab qilishi sababli bolalarda faol lug‘atning yetishmasligini yuzaga keltirib chiqaradi.

Buning asosiy sabablaridan biri:

- «Og‘zaki nutqda so‘z tanlashga vaqt yo‘q. Xotirada bor tanish so‘zlar bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi»;
- asosiy vazifasi «gaplarni og‘zaki tuzish paytida aytib bo‘lingan va yana talaffuz qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlarni xotirada saqlab qolish» dan iborat bo‘lgan operativ xotiraning kuchsizligi.

Demak xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalar to‘g‘ri kommunikativ malakalarini shakllantirishda texnologiyalardan samarali foydalanish muammosi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarning asosini tashkil qiladi. Ularning to‘g‘ri kommunikativ malakasini shakllantirish va o‘rgatish muammosini hal qilishga o‘ziga xos munosabat bildirgan bo‘lsalar-da, aksariyatlari to‘g‘ri kommunikativ malakasini rivojlantirish hamda rivojlantirishda tizimli yondashuvning, maxsus tashkil etilgan ishning zarurligini birdek ta’kidlaydilar. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kommunikativ malakalarini rivojlantirish qancha erta va uzviy tarzda olib borilsa shuncha yaxshi natijalarga erishish mumkin. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bola ijtimoiy-maishiy hayotda ham o‘z o‘rnini topishi uchun og‘zaki nutqi bir muncha shakllangan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмонов М.С. “Таълим сифатини оширишда таълим технологиялардан фойдаланиш” Кукон-2023-йил
2. Qodirova F. U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish. : Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– T.:TDPU, 2006
3. Боскис Р.М. Глухие и слабослышающие дети. – М.: Владос, 2021

¹³⁵ Qodirova F. U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish. : Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– T.:TDPU, 2006

4. Sadirova K. G. ESHITISH IDROKINI ZAIF ESHITUVCHI BOLALARDA RIVOJLANTIRISH USULLARI //International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2025. – C. 105-108.

5. Sadirova, K. G. "ESHITISH IDROKINI ZAIF ESHITUVCHI BOLALARDA RIVOJLANTIRISH USULLARI." *International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. 2025.

6. Sadirova, K. G. (2025, March). ESHITISH IDROKINI ZAIF ESHITUVCHI BOLALARDA RIVOJLANTIRISH USULLARI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 105-108).